

BUDAPESHT SAMMITIDAGI TASHABBUSLAR QARDOSH XALQLARIMIZ O‘RTASIDAGI BARQAROR TARAQQIYOTNI MUSTAHKAMLASH YO‘LIDA YANGI SAHIFA OCHADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan 19-21-may kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-may kuni Budapesht shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ishtirok etdi. Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban raisligida o‘tgan tadbirda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an hamda Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali aloqalarning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida jahonda geosiyosiy va geoiqtisodiy ziddiyatlar, mintaqaviy nizolar va iqlim o‘zgarishi oqibatlari kuchayib borayotgan bugungi murakkab vaziyat shiddat bilan o‘zgarib borayotganini qayd etdi.

Prezidentimiz dolzarb xalqaro muammolarni hal etishda, birinchi navbatda, xalqaro huquq normalari va BMT Nizomiga tayangan holda tashkilot davlatlarining umumiy yondashuv va pozitsiyalarini mustahkamlash muhimligini qayd etdi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga to‘xtalar ekan, O‘zbekiston yetakchisi bu borada ishga solinmagan ulkan salohiyat mavjudligini ko‘rsatib o‘tdi va qator yangi takliflar bildirdi.

Siyosiy jihatdan O‘zbekiston tashabbusi bilan Turkiy davlatlar o‘rtasida strategik sheriklik, abadiy do‘stlik va qardoshlik

to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Ushbu hujjat xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va ko‘p qirrali hamkorlikning uzoq muddatli huquqiy bazasini mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Prezidentimiz savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va transport-kommunikatsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Xususan, Tashkilot mamlakatlarining umumiy tashqi savdo aylanmasida o‘zaro savdo ulushini oshirish maqsadida “Turk-treyd” onlayn platformasini yaratish va Tovar ayirboshlashni ko‘paytirish bo‘yicha amaliy dastur qabul qilish taklif etildi.

Transkaspий xalqaro yo‘lagi orqali yuk tashish hajmining o‘shirishini ta’minlash va bo‘xona-chegara tartib-taomillarini soddalashtirish maqsadida davlatimiz rahbari ushbu yo‘nalish bo‘ylab “yagona darcha” va “yashil yo‘laklar” tizimini tez fursatda joriy etishga chaqirdi. Bu boradagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida joriy yil noyabr oyida Toshkent shahrida Turkiy davlatlarning xalqaro multimodal transport va logistika forumini o‘tkazish rejalashtirildi.

Davlatimiz rahbari Turkiy investitsiya jamg‘armasi ta’sis etilganini olqishlab, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun Qo‘shma venchur kompaniyasi va Tashkilotga a‘zo mamlakatlarining investitsiyaviy imkoniyatlarini taqdim etadigan yagona portal tashkil etish muhim ekanini ta’kidladi.

Sanoat kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida kimyo, energetika, tog‘-kon, yengil sanoat, farmatsevtika, charm-

po‘yabzal, oziq-ovqat va qurilish tarmoqlarida yirik ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari iqlim kun tartibiga to‘xtalar ekan, yaqinda Samarqand shahrida o‘tgan Xalqaro iqlim forumi davomida “yashil” taraqqiyot sohasida global va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha qator muhim tashabbuslar ilgari surilganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning Budapesht shahrida Qurg‘ochilikning oldini olish institutini ishga tushirish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. Uning faoliyatiga ko‘maklashish va maqsadli loyihalarga kengroq jalb qilish uchun “Qurg‘ochilik va ekologik muammolarning oldini olish bo‘yicha qo‘shma yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish taklif qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti fan, madaniyat va ta’lim sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Toshkent shahrida Turkiy davlatlar xalqaro universitetining ochilishi tashkilotga a‘zo mamlakatlarining ta’lim dasturlarini amalga oshirish va iqtidorli yoshlarni tayyorlashga munosib hissa bo‘lishi ta’kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisi Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY faoliyati va tuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda Turkiy madaniyat jamg‘armasi kengashining navbatdagi yig‘ilishini O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif etdi.

► Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI NORASMIY SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Siz, azizlar bilan asrlar davomida Sharq va G‘arb o‘rtasida mustahkam ko‘priklar bo‘lib kelayotgan go‘zal Budapesht shahrida uchrashib turganimizdan behad mamnunman.

Bugungi yig‘ilishimizga yuksak darajada mezbondlik qilayotgan hurmatli Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban Janobi Oliylari sha‘niga aytilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Tashkilotimizda muvaffaqiyatli raislik qilayotgan hurmatli Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Nurgojoyevich Japarov Janobi Oliylariga yangi yutuqlar tilayman.

Muhtaram hamkasblar!

Bugungi sammitimiz shiddat bilan o‘zgarayotgan global vaziyat va oldindan aytib bo‘lmaydigan murakkab jarayonlar sharoitida o‘lmoqda. Geosiyosiy va geoiqtisodiy ziddiyatlar, mintaqaviy nizolar va iqlim o‘zgarishi oqibatlarining kuchayishi barchamiz uchun katta sinov bo‘lmoqda.

Shu sababli dolzarb muammolar yechimi bo‘yicha davlatlarimizning umumiy yondashuv va pozitsiyalarini kuchaytirish har qachongidan ham muhimdir.

Ta’kidlash lozimki, biz eng og‘riqli muammolarga xalqaro huquq me‘yorlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi asosida yechim topish zarur, deb hisoblaymiz.

Ukraina atrofidagi vaziyatni diplomatiya va muzokaralar yo‘li bilan hal etishga

qaratilgan amaliy sa‘y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Hurmatli Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an Janobi Oliylarining bu boradagi munosib hissasini alohida e’tirof etmoqchiman.

G‘azoda sulh bitimining buzilishi va harbiy harakatlarning qaytadan boshlanishi barchamizni chuqur tashvishga solmoqda. Toki “Ikki xalq uchun — ikki davlat” tamoyili ro‘yobga chiqmas ekan, Falastin — Isroil nizosining adolatli yechimini topish mumkin emas.

Global va mintaqaviy xavfsizlik haqida so‘z yuritir ekanmiz, Afg‘onistondagi murakkab vaziyatni inobatga olishimiz va unga birgalikda yechim topishimiz lozim. Afg‘oniston bo‘yicha qo‘shma bayonot qabul qilinaotgan tuzilamizning bu masalaga jiddiy e’tibor qaratib kelayotganidan dalolat beradi.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!

Biz qisqa vaqt mobaynida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida amaliy hamkorlik bo‘yicha samarali natijalarga erishmoqdamiz. Yaqinda iqtisodiy tahlil markazlarimizning Toshkentda bo‘lib o‘tgan anjumanida aloqalarimizni kengaytirish uchun ulkan salohiyat borligi yana bir bor o‘z tasdiqini topdi.

Kun tartibidan kelib chiqib, o‘z takliflarimni bildirmoqchiman.

Xabaringiz bor, o‘tgan yili Turkiy davlatlar o‘rtasida strategik sheriklik, abadiy do‘stlik

hamda qardoshlik to‘g‘risidagi bitimni ishlab chiqish taklifini ilgari surgan edik.

Bugungi kunda ushbu hujjatning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Hech shubhasiz, mazkur bitim xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va ko‘p qirrali hamkorligimizning uzoq muddatli huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu hujjatni Boku sammitida imzolashni taklif qilaman.

Oldimizda aniq vazifa turibdi — yaqin yillarda o‘zaro savdo ulushini keskin ko‘paytirish lozim. Shu maqsadda “Turk-treyd” onlayn platformasini yaratish va Savdoni oshirish amaliy dasturini qabul qilish tashabbuslarini ilgari suramiz.

Transkaspий xalqaro yo‘lagi orqali yuk tashish hajmini oshirish va bo‘xona-chegara tartiblarini soddalashtirish uchun “yagona darcha” hamda “yashil koridorlar” tizimlarini tezroq yo‘lga qo‘yishga chaqiraman. Ushbu yo‘nalishdagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida noyabr oyida Toshkentda Turkiy davlatlarning Xalqaro multimodal transport va logistika forumini o‘tkazishni rejalashtirganmiz.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, **Turkiy investitsiya jamg‘armasining faoliyati sarmoyalar oqimining faollashuviga turtki berishi shubhasiz.**

Biz innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish uchun Qo‘shma venchur kompaniyasini tashkil etish zarur deb

hisoblaymiz. Bu borada mamlakatlarimizning investitsiya imkoniyatlarini to‘liq aks ettirgan “Yagona investitsiya portalini” joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Yana bir masala. Sanoat kooperatsiyasi sohasida amaliy hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish vaqti keldi. Bu borada kimyo, energetika, tog‘-kon, yengil sanoat, farmatsevtika, charm-poyabzal, oziq-ovqat va qurilish sohalarida salmoqli ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bo‘yicha Sanoat kooperatsiyasi dasturini ishlab chiqishni taklif etaman.

Yaqinda Samarqand shahrida o‘tkazilgan Xalqaro iqlim forumida “yashil” taraqqiyot sohasidagi mintaqaviy va global hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha muhim takliflar bildirildi.

Hurmatli Viktor Orban Janobi Oliylarining tashabbusi bilan Budapeshtda Tashkilotimizning Qurg‘ochilikning oldini olish instituti o‘z ishini boshlaganini ham mamnuniyat bilan e’tirof etamiz. Mazkur institut faoliyatiga ko‘maklashish va maqsadli loyihalarga kengroq jalb etish uchun “Qurg‘ochilik va ekologik muammolarning oldini olish bo‘yicha qo‘shma yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishni taklif etaman.

Shu o‘rinda yana bir muhim masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan, barchamizning faxr-iftixorimiz

bo‘lgan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish va dunyoga tarannum etish biz uchun sharaflari va mas’uliyatli vazifadir. Shu bois, ilm-fanni rivojlantirish va yosh avlod uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish niyatida Turkiy dunyo xartiyasida “Ilmdan o‘zga najot yo‘q” degan yuksak axloqiy g‘oyani muhrlab qo‘ydik.

Ushbu ezgu maqsad yo‘lida Toshkentda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti ochilmoqda. Mazkur o‘quv dargohida turkiy davlatlarning yetuk professor va olimlari faoliyat olib borishi ko‘zda tutilmoqda. Bu esa yosh avlodning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, ularning zamonaviy bilimlarni egallashiga munosib hissa qo‘shadi, deb ishonaman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

O‘tgan yili O‘zbekistonning Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasiga rasman a‘zo bo‘lib kirish haqidagi qarorini e’lon qilgan edik. Ushbu tuzilma doirasida umumturkiy madaniy merosimizni asrab-avaylash va uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish oldimizda turgan muhim vazifadir. Bu sohadaqi muloqotni kengaytirish maqsadida Jamg‘arma Kengashining navbatdagi yig‘ilishini mamlakatimizda o‘tkazishni taklif qilaman.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY

alohida o‘ringa ega. Bu yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlarimizni yangi bosqichga olib chiqish va TURKSOYning nufuzini yanada oshirish uchun uning faoliyati va tuzilmasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarur, deb hisoblayman. Shu maqsadda tashqi ishlar va madaniyat vazirlarimizga Boku sammitiga qadar tegishli takliflar ishlab chiqish vazifasini topshirsak, to‘g‘ri bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Muhtaram hamkasblar!

Bundan uch yil oldin turkiy dunyo birligiga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotini ta’sis etgan edik.

Bugun ushbu nufuzli mukofot bilan atqli turk olimi, bioximik, Nobel mukofoti sovrindori, janob Aziz Sanjar taqdirlanayotganidan behad mamnunmiz. Bu mashhur olim O‘zbekiston Milliy universitetining faxriy doktori ekanidan biz albatda g‘ururlanamiz.

Aminmanki, bugungi taqdirlash marosimi turkiy dunyo olimlarini, jumladan, ilm-fan yo‘lida dadil qadam qo‘yayotgan yoshlarimizni yangi-yangi maralar sari rag‘batlantiradi.

Aziz do‘stlar!

Bugungi Budapesht sammitida qabul qilingan muhim qaror va hujjatlar qardosh xalqlarimiz o‘rtasidagi tinchlik, hamijihatlik va barqaror taraqqiyotni mustahkamlash yo‘lida yangi sahifa ochishiga ishonaman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

O‘ZBEKISTON SHARQ-U G‘ARB BILAN MUVOZANAT VA PRAGMATIZMGA INTILIB, KO‘P BOSQICHLI TASHQI SIYOSAT YURITISHNING NOYOB NAMUNASINI KO‘RSATMOQDA

XORIIYIY EKSPERTLAR O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING VENGRIYAGA RASMIY TASHRIFI YAKUNLARI VA TDT NORASMIY SAMMITIDAGI ISHTIROKI HAQIDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga rasmiy tashrifi va Turkiy davlatlar tashkilotining (TDT) norasmiy sammitidagi ishtiroki xalqaro ekspert doiralari vakillarining diqqat markazida bo‘lmoqda.

Mazkur voqea rasmiy Toshkent va Budapesht o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim bosqich bo‘ldi, shuningdek, O‘zbekistonning mintaqaviy va mintaqalararo hamkorlik jarayonlaridagi roli oshib borayotganini namoyish etdi. Tashrif strategik sheriklik, jumladan, siyosiy muloqot, sarmoyaviy hamkorlik va madaniy-gumanitar sohadaqi almashinuv chuqurlashib borayotganini fonida bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbarining Vengriya poytaxtida ilk bor o‘tkazilgan TDT norasmiy sammiti tadbirlaridagi ishtiroki alohida qiziqish uyg‘otdi. Ekspertlar fikricha, O‘zbekiston Prezidentining sammitdagi nutqi rasmiy Toshkentning turkiy dunyo doirasidagi faol tashqi siyosiy pozitsiyasini yana bir bor namoyon etdi. Markaziy Osiyoda muhim mavqega ega bo‘lgan O‘zbekiston TDT mamlakatlari, jumladan, tashkilotda kuzatuvchi va Yevropa Ittifoqidagi istiqbolli hamkor bo‘lgan Vengriya bilan barcha jabhalarda rishtalarni mustahkamlashga intilmoqda.

► Davomi 2-betda

Xalqaro forum TERMIZ MULOQOTI TINCHLIK, DO‘STLIK VA HAMKORLIK RAMZIGA AYLANMOQDA



Yuksalish pallasi “EL-YURT UMIDI” JAMG‘ARMASI: KREATIV FIKRLAYDIGAN KADRLARNING YANGI AVLODINI QO‘LLAB-QUVVATLAYDI



Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan tahlilali dunyoda taraqqiyot sari dadil qadam qo‘yish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish uchun yuqori malakali va kreativ fikrlaydigan mutaxassislarga talab tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda eng katta boyligimiz — inson kapitali va salohiyatini yuksaltirish masalasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

► Davomi 3-betda



BUDAPESHT SAMMITIDAGI TASHABBUSLAR QARDOSH XALQLARIMIZ O'RTASIDAGI BARQAROR TARAQQIYOTNI MUSTAHKAMLASH YO'LIDA YANGI SAHIFA OCHADI

Boshlanishi 1-betda

Sammit yakunida Budapesht deklaratsiyasi, shuningdek, hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha boshqa qator hujjatlar qabul qilindi.

Budapeshtdagi Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti doirasida "Turkiy dunyo birligiga qo'shgan hisssasi uchun" Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Bu yil mukofotga taniqli turk biokimyogari, Nobel mukofoti sovrindori, O'zbekiston Milliy universiteti faxriy doktori Aziz Sanjar sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Aziz Sanjarni samimiy tabriklab, nufuzli mukofotning ilm-fan arbobiga topshirilishi turkiy dunyo olimlari, jumladan, yoshlarni yangi marralarni zabt etishga ilhomlantirishini alohida ta'kidladi.

Turkiy davlatlar tashkilotining buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi mukofoti davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2021-yilda ta'sis etilgan. U turkiy madaniyatni targ'ib qilish, tinchlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash va ishonchni mustahkamlash, shuningdek, turkiy xalqlar o'rtasida turli sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga qo'shilgan alohida hissa uchun har ikki yilda bir marta topshiriladi.

O'ZA

Xalqaro forum

19-21-may kunlari qadimiy Termiz shahrida Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro anglashuv va hamkorlikni chuqurlashtirishga ko'maklashishga qaratilgan nufuzli ekspertlar platformasi — Termiz muloqotining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Muloqot Markaziy va Janubiy Osiyo, MDH, Yevropa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Amerika, Yaqin Sharq mamlakatlariidan siyosiy-iqtisodiy va biznes doiralari vakillari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar a'zolari, moliya institutlari, shuningdek, jahonning turli ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlarining nufuzli ekspertlaridan 200 ga yaqin kishini yagona maqsad yo'lida jamladi.

Termiz muloqoti yig'ilishining birinchi kuni mazmunli va konstruktiv muhokamar muhitida o'tdi. Tadbir ishtirokchilari tinchlik va do'stlikda o'zaro bog'liqlik, hamkorlik va ishonch butun mintaq xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning asosiy ustunlariga aylanib borayotgan bir sharoitda mazkur muloqotning dolzarb ekanini ta'kidlashdi.

Termiz muloqoti Markaziy va Janubiy Osiyoda mintaqaviy tashkilotlari ishtirokida tinchlik, xavfsizlik va butun mintaqaning barqaror rivojlanishi bilan bog'liq dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun maydon, muhim va noyob platforma sanaladi. Shu jihatdan ikki mintaq va mintaqalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash yo'lida qabul qilingan rezolyutsiyaning ahamiyati o'ziga xos bo'ladi, — deydi BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze. — Men 2021-yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan konferensiyaning eslatib o'tmoqchiman. U va davomli tashkil etilayotgan, tinchlik va do'stlik, farovonlikni ta'minlashni bosh maqsad qilayotgan bunday xalqaro tadbirlar shaxsan Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan ekanini e'tiborga molik.

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2021-yilda "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Qiyyinchiliklar va imkoniyatlar" xalqaro konferensiya o'tkazilgan edi. Shu bilan birga, BMT tomonidan 2022-yilda qabul qilingan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash rezolyutsiyasi ham bu xalqaro darajadagi muloqotga asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Prezidentining Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni mustahkamlash bo'yicha 2022-yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qo'llab-

quvvatlangan tashabbusini ilgari surishda ko'p tomonlama munozara maydonini shakllantirish uchun Surxondaryoda tashkil etilgan forum O'zbekistonning Afg'oniston chegarasidagi Markaziy Osiyoda muqobili yo'q "Termiz xalqaro savdo markazi" erkin savdo zonasi bilan tanishuvdan boshlandi.

Bu xalqaro savdo markazi Karachi — Termiz — Toshkent — Qozog'iston — Rossiya transport koridorining muhim bog'lovchi qismi hisoblanadi va Hind okeani portlariga chiqish imkonini berishi bilan g'oyat ahamiyatli.

Yirik majmuda zamonaviy texnologiyalar asosida mahsulotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash inshootlari mavjud bo'lib, yuklarni "Yagona darcha" tamoyili asosida tezkor rasmiylashtirish uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Tadbir davomida xorijlik mehmonlarga hujjatlashtirish borasidagi ishlar xususida ham batafsil ma'lumot berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Tashqi ishlar vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamkorligida uch kun davomida o'tkazilgan forum jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otdi. Muloqotlarda Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi mintaqalararo hamkorlikning joriy holati va istiqbolli muhokama etildi. Bunda xavfsizlik, barqarorlik va izchil rivojlanishni ta'minlash bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xususiy sektor va moliyaviy tuzilmalarning rolini kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Termizdagi forumda yirik xalqaro institut va markazlar vakillari ishtirok etdi. Rossiya Fanlar akademiyasining Yevgeniy Primakov nomidagi Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar milliy tadqiqot instituti, AQSHning Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti, Buyuk Britaniya Qirolik xalqaro munosabatlar instituti, Finlyandiyaning Martti Ahtisaari nomidagi Tinchlik jamg'armasi, Germaniyaning Bergxof jamg'armasi, Hindistonning "Observer Reserch Foundashn" tahliiliy markazi va xalqaro ishlar bo'yicha kengashi, Pokistonning Strategik tadqiqotlar instituti, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti kabi nufuzli tashkilotlar ekspertlari shular jumlasidan.

Muloqotning har bir kunidan joy olgan tadbirlarda Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ikki mintaq — Markaziy va

Janubiy Osiyo davlatlari tobora o'sib borayotgan katta bozorga ega. Ularda 2 milliarddan ortiq aholi istiqomat qiladi. Bu dunyo aholisining 25 foizidan ortig'i deganidir. Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda Janubiy Osiyo davlatlarining umumiy tashqi savdo aylanmasi 1,4 trillion dollarga, Markaziy Osiyoniki esa 253 milliard dollarga yetgan. Biroq bu borada hali foydalanilmagan ulkan salohiyat mavjud. Iqtisodiy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida ekspertlar savdo sohasida mintaq davlatlarining ishga solinmagan imkoniyatidan to'liq foydalanish, transport-logistika tizimini rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.

Masalan, transafg'on temir yo'li loyihasi amalga oshirilishi natijasida yangi tashish muddati va narxini 30-40 foiz qisqartirishga erishiladi. Mintaqalar davlatlarini Hind okeani portlari orqali Rossiya, Xitoy va Yevropa bozorlari bilan bog'lashda alohida ahamiyatga ega.

Termiz muloqoti o'ziga xos yangi format, O'zbekistonning Afg'oniston bilan chegarasida tashkil etilgan ilk katta va muhim forum. Menimcha, bu O'zbekistonning mintaqadagi qator muammolarga yechim topishga qaratilgan muhim tashabbuslaridan yana biri. Haqiqatan, bu hududlarda infratuzilma bilan bog'liq muammolar yetarlicha: rivojlangan transport tuzilmasi yo'qligi, mintaq davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yetarli darajada emasligi ma'lum holat. O'zbekistonning sa'y-harakatlari natijasida Afg'oniston asta-sekin mintaqada muhim iqtisodiy maydonga aylanmoqda. Agar bugun muhokama qilinayotgan loyihalar amalga oshsa, kelajakda Afg'oniston tranzit davlat sifatida katta imkoniyatga ega bo'ladi, — deydi rossiyalik taniqli ekspert, siyosiy tahlilchi Stanislav Pritchin. — Transafg'on temir yo'li loyihasi O'zbekiston va Afg'onistonnii asosiy tranzit davlatlarga aylantiradi. Bu oddiy infratuzilma loyihasi emas, balki mintaqaviy logistika xaritasini tubdan o'zgartirishi mumkin bo'lgan strategik yo'nalish. Bu bilan O'zbekiston nafaqat mintaqadagi eng muhim tranzit markaziga, balki Rossiya bilan Afg'onistonnii bog'laydigan muhim strategik davlatga aylanmoqda. Eng asosiysi, agar ushbu loyihalar amalga oshirilsa, Afg'oniston ajratuvchi emas, balki Janubiy va Markaziy Osiyoni birlashtiruvchi mamlakatlarga aylanadi. Bularning barchasi O'zbekiston tomonining katta qadamlari va muhim tashabbuslari sanaladi.

Xalqaro tadbirida O'zbekiston tomoni o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish orqali Markaziy va Janubiy Osiyoni barqaror rivojlanish zonasiga

aylantirish strategiyasini ilgari surdi. O'zaro muloqotlar davomida Afg'oniston vakillari Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy platforma taqdimotini o'tkazdi. Bu tashabbus ishltirokchi mamlakatlarning Savdo-sanoat palatalari mas'ullari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

— Bizga qo'shni va Afg'onistonga doimo suyanch O'zbekistonda tashkil etilgan forum umumiy muammolarni birgalikda hal etish, o'zaro manfaatlarni ilgari surish, mintaqalararo kun tartibini amaliy mazmun bilan ta'minlash uchun misli ko'rilgan imkoniyatlar ochib beradi, — deydi Afg'oniston tashqi ishlar vaziri o'rinbosari vazifasini barcharuvchi Muhammad Naim Vardak. — Forumda ishtirok etayotganimizdan juda mamnunmiz. O'zbekiston, Termiz mintaqadagi o'zaro bog'liqlikning kuchli bir ramziga aylanmoqda. Muloqotlar esa o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirish orqali mojarolar va geosiyosiy qarama-qarshiliklardan xoli hamkorlikning umumiy makonini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

— Bu yerda bugun Markaziy va Janubiy Osiyodan, qolaversa, Afg'onistondan kelgan ishtirokchilarni ko'ryapmiz. Ular bilan birgalikda duch kelayotgan umumiy muammolar va imkoniyatlarni muhokama qildik. Bunda O'zbekiston mintaq xalqlarini birlashtirish va dolzarb bo'lgan masalalarni ochiq muhokama qilishga chorlab, chinakam yetakchiligni namoyon qilmoqda, — deydi BMTning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy koordinatori Sabina Maxl. — Forumning ikkinchi kunida biz turli mavzularni, jumladan, iqlim o'zgarishi masalasini muhokama qildik. Dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan, quvruqlik bilan o'ralgan davlatlar uchun innovatsion yechimlar zarur va bu yerda aynan shu masalalarga e'tibor qaratilayotganini ko'rish quvonarli. Iqtisodiy jihatdan ham masalaning dolzarbligi katta. Shunday ekan, biz hammasini uchun iqtisodiy o'sish va umumiy farovonlikka olib boruvchi yo'llarni topishtimiz zarur.

Uch kun davomida o'tkazilgan muloqotlar kelgusida mintaqalar o'rtasida tinchlik va o'zaro do'stlik, hamkorlikni yanada rivojlantirishda muhim qadamlardan biriga aylanishi shubhasiz.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'ZBEKISTON SHARQ-U G'ARB BILAN MUVOZANAT VA PRAGMATIZMGA INTILIB, KO'P BOSQICHLI TASHQI SIYOSAT YURTISHNNG NOYOB NAMUNASINI KO'RSATMOQDA

XORIJIY EKSPERTLAR O'ZBEKISTON PREZIDENTNING VENGRIYAGA RASMIY TASHRIFI YAKUNLARI VA TDT NORASMIY SAMMITIDAGI ISHTIROKI HAQIDA

Boshlanishi 1-betda

Ekspertlar bahosiga ko'ra, mazkur tashrif O'zbekiston — Vengriya munosabatlari va TDT doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun juda muhim.

Derya Soysal, "Eureporter" nashri muxbiri, Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bo'yicha ekspert (Belgiya):

— Mazkur tashrif O'zbekistonning xalqaro, ayniqsa, Yevropa davlatlari bilan aloqalarini mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekiston Yevropa Ittifoqi uchun tobora muhim hamkorga aylanib bormoqda. Vengriya bilan munosabatlarning rivojlanishi tashqi siyosat va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha strategik kursni aks ettiradi.

O'zbekiston Prezidentining Budapeshtda bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitidagi ishtiroki alohida e'tiborga loyiq. Vengriya o'zining kuzatuvchi maqomiga ega bo'lishiga qaramay, tashkilotning eng faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, turkiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishdan doimiy manfaatdor ekanini namoyish etadi. Turkiy davlatlar tashkiloti yangi dunyo tartibi va vujudga kelayotgan xalqaro institutlar tizimida o'ziga xos rol o'ynaydi. Vengriya va O'zbekiston o'rtasidagi mustahkamlanib borayotgan hamkorlik mintaqaviy va global siyosatda muhim o'rin tutadi.

66

So'nggi yillarda TDT siyosiy ishonch va iqtisodiy birlikni mustahkamlash, ko'p tarmoqli hamkorlikni jadallashtirish hamda a'zo va kuzatuvchi davlatlar o'rtasida barqaror rivojlanishni rag'batlantirishda salmoqli natijalarga erishdi.

Hozirgi kunda tashkilot oldida "Turkiy dunyo nigohi — 2040" strategik dasturida belgilangan yanada ulug'vor maqsadlar turibdi. Unda rivojlanishning asosiy yo'nalishlari qayd etilgan: iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik va jamoaviy xavfsizlikni mustahkamlash.

O'zbekiston ushbu maqsadlarga erishishda yetakchi rol o'ynaydi, turkiy davlatlar o'rtasidagi

transport va energetika aloqalarini yaxshilashga qaratilgan mintaqaviy infratuzilma loyihalarini faol qo'llab-quvvatlaydi. Bu tashabbuslar, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari milliy iqtisodiyotlarining barqaror o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning TDT doirasidagi strategik ahamiyatini ortiqcha baholash shart emas. O'zbekiston Temuriylar davri tarixi va madaniyat hamda Alisher Navoiyning boy adabiy merosiga ega, shuningdek, turkiy dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan davlatlaridan biri va xalqaro turizm uchun jozibador manzil hisoblanadi.

Bularning barchasi O'zbekistonnii Turkiy davlatlar tashkilotining asosiy a'zosiya aylanitrib, uning jahon miqyosidagi rolini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekistonning boshqa turkiy davlatlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirishi TDTning nufuzli xalqaro ittifoq sifatidagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi.

Shexriyar Xon, Milliy muloqot forumi tahliliy markazi ijrochi direktori (Pokiston):

— Men xalqaro siyosat bo'yicha ekspert sifatida O'zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatini, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga tashrif kontekstida katta qiziqish bilan kuzatayapman. Ushbu tashrif Toshkentning Yevropa yo'nalishidagi hamkorlar tarmog'ini kengaytirishga bo'lgan yondashuvining barqarorligini aks ettiradi.

Bu, ayniqsa, O'zbekistonning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ma'rifiy tarkibiy qismlarga tayangan holda Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan mustahkam va mazmunli aloqalar o'rnatayotganidan dalolat beradi. Ta'kidlash joizki, Vengriya nafaqat Yevropa Ittifoqi a'zosi, balki o'ziga xos geosiyosiy mavqega ega va Markaziy Osiyoda alohida manfaatdor davlatdir. Bu uni turkiy va Yevropa makonining muhim aloqa kanaliya aylanitiradi.

Menimcha, O'zbekiston yetakchisining Budapeshtga tashrif rasmiy Toshkent bugun transmintaqaviy jarayonlarning faol ishtirokchisi ekanini yana bir bor tasdiqladi. Ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitidagi ishtiroki diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Sharq va G'arb bilan muvozanat va pragmatizmga intilib, ko'p bosqichli tashqi siyosat yuritishning noyob namunasi o'rsatmoqda. Vengriyaga tashrif esa nafaqat sarmoya

va savdo, balki O'zbekistonning Yevroosiyo markazida ishonchli hamkor sifatida uzoq muddatli o'rin egallashiga qaratilgan. Jahon iqtisodiyotining global parchalanishi sharoitida O'zbekiston barqaror ta'minot zanjirlarini yaratishi mumkin bo'lgan ittifoqchilar topayotgani muhimdir.

Mazkur tashrif nafaqat ikki tomonlama aloqalarni, balki dunyoning turli burchaklarida, jumladan, Yevropada ham fikri tinglanadigan davlatga aylanib borayotgan O'zbekistonning xalqaro miqyosidagi ishtirokining institutsional jihatini mustahkamlaydi.

Ishonchim komilki, tashrif natijalari nafaqat Toshkent va Budapesht uchun, balki kengroq Yevroosiyo kontekstida ham uzoq muddatli samara beradi. Bu bir lahzalik konyunkturaga emas, balki o'zaro ishonch, o'ziga xoslik va strategiyaga asoslangan diplomatiya namunasiidir.

Ijima Satosi, Saytama universiteti professori (Yaponiya):

— O'zbekiston Prezidentining Vengriyaga tashrifi haqidagi ma'lumotlarni katta qiziqish bilan kuzatib boryapman. Men O'zbekistonning xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasidagi faol qadamlarini olqishlayman.

Ayniqsa, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik nafaqat tarixiy rishtalarga asoslanib, balki aniq tashabbuslar bilan ham qo'llab-quvvatlanayotgani quvonarli. Xususan, savdo-iqtisodiy loyihalar, siyosiy tashabbuslar, akademik almashinuvlar, ilmiy tadqiqotlar va qo'shma madaniy tadbirlarning amalga oshirilayotgani alohida e'tiborga molik. Bunday yondashuv ikki mamlakat hukumatlari, biznes jamiyatlari darajasida barqaror aloqalarni shakllantirishga strategik yondashuvni namoyish etadi.

Biz, yapon olimlari uchun ta'lim va madaniyat sohasidagi tashabbuslar ikki tomonlama hamkorlik tuzilmasida qanday izchillik bilan integratsiyalashganini kuzatish muhimdir. Madaniyatlararo muloqot platformalarini yaratish, til va akademik markazlarni qo'llab-quvvatlash, kinofestivallarning hamda ko'rgazmalar o'tkazish — bularning barchasi nafaqat xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlaydi, balki uzoq muddatli hamkorlik uchun zarur bo'lgan ishonch muhitini ham yaratadi.

O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi muloqotda, ayniqsa, gumanitar sohada to'planib borayotgan tajriba Yaponiya — O'zbekiston munosabatlari nuqtayi nazaridan katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu tashqi siyosatning madaniy

jihati naqadar qimmatli ekanini va uning negizida barqaror aloqalarni shakllantirish mumkinligini ko'rsatadi.

Ishonchim komilki, ta'lim, madaniyat va xalq diplomatiyasi Yaponiya — O'zbekiston nafaqat tajriba almashishi, balki birgalikda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishlari mumkin bo'lgan sohalaridir. Talabalar va o'qituvchilar almashinuvi dasturlari, qo'shma ilmiy tadqiqotlar, ta'lim dasturlari va loyihalari — bularning barchasi yanada qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirishga loyiqdir. Bunday tashabbuslar mamlakatlar o'rtasida "ishonch ko'prigi"ni yaratishga yordam beradi, bu, ayniqsa, global o'zgarishlar sharoitida juda dolzarbdir.

Ilgar Velizade, ozarbayjonlik siyosatshunos va jurnalist: — Tashrif o'zbek-venger ko'p qirrali munosabatlari chuqurlashtirib borayotganidan, kelgusida ikki davlat salohiyatidan samarali foydalanishdan dalolat beradi.

66

2018-yilda Turkiya va Ozarbayjondagi yetakchi iqtisodiy nashrlardan biri — "Derin Ekonomi"ning siyosiy kuzatuvchilari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni o'z mamlakatlari va mintaqalaridagi vaziyatni o'zgartirishga jiddiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan dunyodagi yetakchi liderlar o'ntaligiga kiritgani bejiz emas.

Chunki Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanganidan keyingi eng muhim qadamlaridan biri boshqa davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlarni tubdan yaxshilash yo'lini tanlagani bo'ldi.

O'shandan beri o'tgan vaqt bu bahoning to'g'riligini ko'rsatdi. Bugun mamlakat yetakchisi rahnamoligida O'zbekistonda iqtisodiyotni liberalashtirish, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani respublikani Vengriya uchun istiqbolli iqtisodiy hamkorga aylantirmoqda.

O'z navbatida, Vengriya tomoni ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar natijasida

O'zbekiston taraqqiyotining barqaror ijobiy dinamikasini yuqori baholaydi.

Yana bir muhim jihat, Vengriya O'zbekiston ilmiy-tahlil institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdan manfaatdor. Bu ikki davlatning strategik sheriklik va ilmiy-ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash istagini ifodalaydi hamda ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarni rivojlantirish, turli sohalaridagi hamkorlik uchun yangi uqlarni ochishda muhim qadamdir.

2021-yilda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Vengriya tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Xalqaro munosabatlar va savdo instituti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolangan edi. Mazkur kelishuv ekspertlar muloqotini rivojlantirish, tahliiliy materiallar almashish, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiyot va xalqaro munosabatlarning dolzarb masalalari bo'yicha qo'shma tadqiqotlar olib borishga xizmat qildi.

Ishonchim komilki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga rasmiy tashrifi, umuman, O'zbekistonning nafaqat Budapeshtning asosiy hamkori, balki Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyoni bog'lovchi bo'g'in sifatidagi rolini belgilaydi.

Viktor Kim, Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasi Falsafa, siyosatshunoslik va huquq instituti ilmiy xodimi (Tojikiston):

— O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbaning 2021-yil mart oyida va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil oktabrdagi o'zaro tashriflaridan so'ng tomonlar o'rtasidagi yuksak dinamika, o'zaro manfaatdorlik va ishonch bilan ajralib turadi. Mamlakatlarning barcha darajadagi tizimli hamkorligi — savdo-iqtisodiy sheriklik, parlamentlararo va idoralararo hamkorlikning bosqichma-bosqich rivojlanishi keng qamrovli shartnomaviy-huquqiy bazani shakllantirish imkonini berdi.

Shu bois, kengaytirilgan strategik sheriklik munosabatlarni yo'lga qo'yish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolanganidan Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Viktor Orban o'rtasidagi uchrashuv natijalari mantiqan to'g'ri bo'lganini ko'rsatadi.

Vengriya tashqi siyosatidagi qiziq fakt uning boshqa xalqaro integratsiya jarayonlarida, xususan, kuzatuvchi davlat sifatida Turkiy davlatlar tashkilotidagi faol ishtirokidir.

Qayd etish kerakki, Vengriya birinchi marta kuzatuvchi davlat sifatida TDT norasmiy sammitiga mezbonlik qilmoqda. Bu Vengriyaga TDTga a'zo mamlakatlar tomonidan bildirilgan yuqori darajadagi ishonchdan dalolat beradi.

Bakit Baketayev, qirg'izistonlik taniqli siyosatshunos:

— Bu nafaqat tashqi siyosiy qadam, balki O'zbekistonning ochiqlik, integratsiya va yangi dunyo tartibini shakllantirishdagi faol ishtiroki bo'yicha strategik yo'nalishining muhim davomi bo'ldi.

Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlarni 30 yildan ortiq kuzatuvchi ekspert sifatida qayd etamanki, so'nggi yillarda mintaqada sifat o'zgarishlari yuz berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev yangicha yondashuvning asosiy me'morlaridan biriga aylandi. Uning ichki islohotlar dasturi nafaqat iqtisodiyot va ijtimoiy institutlarni modernizatsiya qilish, balki pragmatizm va ishonchga asoslangan yangi siyosiy madaniyatni yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonning tashqi siyosiy faoliyati, ayniqsa, Yevropa yo'nalishidagi faoliyati ana shu strategiyaning mantiqiy davomi bo'ldi.

Vengriya bilan samarali muloqot o'rnatildi, shuningdek, mazkur tashrif strategik sheriklikni mustahkamlash, iqtisodiy va gumanitar hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochishi kutilmoqda.

Ta'kidlash joizki, global geosiyosiy notinchliklar fonida Markaziy Osiyo murakkab mintaqaviy muamomalarni tinch yo'li bilan hal etishning noyob namunasi namoyish etmoqda. Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasidagi chegaralarning tarixiy qaror topishi, qo'shma infratuzilma loyihalari — Qambarata GES-1 qurilishi mintaqaning yangi kamolot bosqichiga ko'tarilganidan dalolatdir.

Ayniqsa, mintaq xalqlarining tashabbusi bilan mamlakatlar rahbarlari hayotiy resurslarning rolini umumiy tushunishga asoslangan hamkorlikning yangi shakli — Suv va elektr ittifoqini amalda tashkil etganini alohida ta'kidlash joiz. Bir paytlar Yevropada ko'mir ittifoqi tuzilib, bo'lajak Yevropa Ittifoqining asosiga aylanganidek, Markaziy Osiyoda ham suv va elektr energiyasi birlashtiruvchi elementlarga aylandi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda nafaqat ichki o'zgarishlarni boshqarishga, balki xalqaro maydonda konstruktiv, o'zaro manfaatli muloqotni yo'lga qo'yishga qodir noyob yetakchilar jamoasi shakllandi. Balki hozir Markaziy Osiyo nafaqat geografik chorrahaga, balki siyosiy donolik va barqarorlik manbaiga aylanib borayotgandir.

"Dunyo" AA

“EL-YURT UMIDI” JAMG‘ARMASI:

KREATIV FIKRLAYDIGAN KADRLARNING YANGI AVLODINI QO‘LLAB-QUVVATLAYDI

Boshlanishi 1-betda

Zero, har qanday yurt iqtisodiyotining barqarorligi, barcha sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olishi mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bog‘liq. Yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlash, tajriba oltirishi uchun keng imkoniyat yaratish, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste’dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish jahon andazalari darajasida bilim olgan, zakovatli, har tomonlama barkamol milliy kadrlarni tayyorlashda muhim omildir.

Prezidentimizning “Iqtidorli mutaxassislarini xorijda ta‘lim olishini qo‘llab-quvvatlash, ularda kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va rag‘batlantirishga

oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ana shu maqsadni o‘zida mujassam etgan. Unga binoan mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish borasida faoliyat yuritayotgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi etib qayta tashkil etildi.

Bu bilan nimalar o‘zgarmoqda? Jamg‘armaning qaytadan tashkil etilishiga qanday ehtiyoj bor edi? Buning natijasida qanday imkoniyatlar yuzaga keladi? Yurt koriga yarashni asl maqsad qilib qo‘ygan salohiyatli yoshlar, davlat xizmatchilari, xalqimiz hayotida qanday yangilanishlar kuzatiladi?

Muxbirimiz ushbu savollarga javob olish maqsadida soha mutaxassislari va ekspertlarga yuzlandi.



MAQSAD — JAHON MEHNAT BOZORIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH

degan haqli savol tug‘ilishi mumkin. Har bir ta‘lim dasturi bo‘yicha tanlovda ishtirok etish uchun yosh chegarasi mavjud. Misol uchun, bakalavriat uchun 30 yoshgacha, magistratura uchun 40 yoshgacha va doktorantura uchun 45 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jamg‘arma ochiq tanlovlariida ishtirok etishi mumkin.

Eng yaxshi (TOP) 100 talik universitetda o‘qish xarajatini 100 foiz qoplaydigan grant asosida qabul qilingan talabalar jamg‘armaning ochiq tanlovlarisiz jamg‘arma stipendiatlari sifatida e’tirof etilishi mumkin. Ularga to‘liq stipendiya (viza, tibbiy sug‘urta, yashash, turar joy, o‘quv adabiyotlarini sotib olish, konferensiyalarda ishtirok etish va boshqa xarajalar uchun) ajratiladi. Eng yaxshi (TOP) 300 talik universitetda o‘qish xarajatini 100 foiz qoplaydigan grant asosida qabul qilingan talabalar ham tanlovlarsiz jamg‘arma stipendiatlari sifatida e’tirof etilsada, ularga faqat xalqaro transport va turar joy xarajati uchun “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiya ajratiladi.

Xorijiy mamlakatlarda ta‘lim olishni moliyalashtiradigan xalqaro yoki xorijiy tashkilotlar, oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy muassasalar tomonidan, jumladan, Shevening, Fullbright, Erasmus Mundus, DAAD, KOICA, JICE va shunga o‘xshash

muassasalari bilan qo‘shma ta‘lim dasturlari, ularning O‘zbekiston hududidagi filiallarini ochish bo‘yicha xarajalarini hamda xorijiy mamlakatlar yoshlarining mamlakatimizdagi milliy oliy ta‘lim muassasalarida o‘qishida ko‘maklashadi.

Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi tomonidan davlatning turli organlari, vazirlik, idoralardan har xil buyurtmalar shakllantirib boriladi. Bizdagi qaysi sohalarida mutaxassislarga ehtiyoj mavjud, qaysi

Ota-onalar, stipendiatlar va “El-yurt umidi” jamg‘armasining o‘zaro klasteri shakllantiriladi. Ota-onalar yagona platformada barcha jarayondan xabardor bo‘lishi, farzandlarining chet eldagi o‘qishini monitoring qilishi, muvaffaqiyatlarini kuzatib borishi va qabul qilinadigan me‘yoriy hujjatlardan xabardor bo‘lishi kabi yangi jihatlar qamrab olinmoqda.

Yoshlarda vatanga muhabbatni oshirish, eng ilg‘or xorijiy dasturlar asosida ta‘lim



Yangi Uyg‘onish davrini yurt taraqqiyotining faol ishtirokchisi, yangi g‘oyalarning dadil tashabbuskori, millatimizning tom ma‘nodagi “oltin fondi” bunyod etadi. Shunday ekan, jahon andazalari darajasida bilim olgan, zakovatli, har tomonlama barkamol milliy kadrlarni yetishtirish bugunning muhim vazifasi bo‘lib qolaveradi.



boshqa dasturlar asosida ajratiladigan grantlar yoki stipendiyalar orqali to‘liq moliyalashtiriladiganlar jamg‘arma ochiq stipendiya tanlovlariida ishtirok eta olmaydi.

Nafaqat yurtimiz yigit-qizlari, balki xorijlik yoshlarni bizning universitetlarda o‘qitishga alohida imkoniyat, sharoit yaratish masalalariga ham e’tibor qaratilgan. O‘qish dasturlari, tibbiy sug‘urta, hatto kitoblarni sotib olishgacha bo‘lgan va yashash uchun barcha xarajat qoplanishi ko‘zda tutilgan.

Farmonga ko‘ra, jamg‘arma endi oliy ta‘lim muassasalarining asoslantirilgan takliflari bo‘yicha QS (Quacquarelli Symonds) hamda THE (The Times Higher Education) xalqaro reyting tashkilotlarining global reytingida eng yuqori 300 talik ro‘yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta‘lim

yo‘nalishlarda xorij tajribasini qo‘llasak, soha yanada rivojlanadi degan yondashuvga tayaniladi. Buyurtmalar asosida yoshlarni bakalavriat, magistratura va doktoranturada o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Shu paytgacha stajirovka dasturlari moliyalashtirilmagan. Endi maqsadli stajirovkalar tashkil etilishiga urg‘u berilyapti. Vazirliklar, idoralar, turli tashkilotlar, nufuzli oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy-tahliliy markazlar xodimlarining bir oydan olti oygacha bo‘lgan maqsadli stajirovkasini tashkil etish, amaliy, yangi ko‘nikmalarni shakllantirish, yangi texnologiyalar, innovatsion g‘oyalarni olib kelish va ularga singdirish ko‘zda tutilgan.

Muhim yangiliklardan biri sifatida “El-yurt umidi” jamg‘armasining ota-onalar kengashi tashkil etilyapti. U maslahat organi bo‘lib, tanlovlarni o‘tkazishda adolat hamda shaffollikni ta‘minlash yuzasidan takliflar bildirishi, boshqaruv kengashi yig‘ilishlarida ishtirok etishi, xorijdagi stipendiatlar bilan doimiy muloqotni ta‘minlashi, ta‘lim-tarbiya jarayonida jamg‘armaga ko‘maklashishi, stipendiatlar erishgan yutuqlarni jamoatchilikka yetkazishda amaliy yordam berishi ko‘zda tutilgan.

olishi va yurt koriga kamarbasta bo‘lishida biz ota-onalar kengashi ko‘magiga tayanamiz. Bu borada samarali tizim yaratiladi degan umiddamiz.

Yangi Uyg‘onish davrini yurt taraqqiyotining faol ishtirokchisi, yangi g‘oyalarning dadil tashabbuskori, millatimizning tom ma‘nodagi “oltin fondi” bunyod etadi. Shunday ekan, jahon andazalari darajasida bilim olgan, zakovatli, har tomonlama barkamol milliy kadrlarni yetishtirish bugunning muhim vazifasi bo‘lib qolaveradi. Jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta‘lim muassasalarida tayyorlash uchun bugun barcha shart-sharoit yaratilmoqda, imkoniyatlar ishga solinayotir. Bu sa‘y-harakatlar kun kelib samara berishi shubhasiz.

66

Prezidentimiz farmonida yoshlarga katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlarga e’tiborni ko‘rish mumkin. Eng muhim jihatlardan biri shuki, o‘qishni yakunlagandan keyin xorijda maqsadli stajirovka o‘tash imkoniyati yaratilmoqda. O‘zining sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish yoki magistraturani tamomlagandan keyin xorijda doktorantura bosqichida ta‘lim olish imkoniyati taqdim etilayotir.

XORIJDA TAHSIL OLISH MAS’ULIYAT BILAN BIRGA ISHONCH BERDI

**Jasurbek QAYNARBEKOV,
Raqamli texnologiyalar vazirligining
raqamli ta’limni rivojlantirish
boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari:**



— AQSHning nufuzli universitetida tahsil olish eng katta orzularimdan biri edi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi tufayli shunday imkoniyatga ega bo‘ldim. 2017-yilda dunyodagi eng mashhur universitetlardan biriga 50 foizlik grant asosida o‘qishga kirganman. Lekin moliyaviy qiyinchiliklar tufayli orzum orzuligicha qolib ketdi.

2022-yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasiga qaytadan hujjat topshirib, sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tdim. Bu menga o‘zim istagan universitetda tahsil olish imkonini berdi. AQSHning Pitsburg davlat universitetida raqamli texnologiyalar boshqaruvi yo‘nalishi bo‘yicha magistratura bosqichida tahsil oldim va O‘zbekistonga qaytdim.

66

Jamg‘arma juda ko‘p orzumni amalga oshirishga imkon berdi. Birinchi navbatda, yorining nufuzli universitetida tahsil olish, u yerdagi tajriba, yangi texnologiyalarni o‘rganishiga zamin yaratdi. Turli davlatlardan kelgan tengdoshlarim bilan fikrlashish, nufuzli olimlar bilan birga yirik loyihalarni amalga oshirish, ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkon berdi. 2023-yilda Kanzas shtatida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot sammitida nufuzli o‘rinlarni qo‘lga kiritdim.

“El-yurt umidi” stipendiatlari sifatida xorijda tahsil olib yurtga qaytish, birinchidan, mas’uliyat yuklasi, ikkinchidan, juda keng imkoniyatlarni ochadi. Bildirilgan ishonch va umidning o‘zi katta imkoniyat. Qaytib kelganimdan keyin Raqamli texnologiyalar vazirligida — Raqamli ta‘limni rivojlantirish boshqarmasida boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari sifatida ish boshladim. Vazirlidagi eng yosh rahbarlardan biriman. AQSHdan qaytganimga bir yil bo‘ldi. O‘tgan vaqt davomida katta loyihalarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldik. Misol uchun, Jahon banki bilan hamkorlikda 50 million dollarlik investitsiya jalb qilindi. Shu orqali barcha hududda markazlar tashkil etilib,

6000 dan ortiq xotin-qiz, yoshlar axborot texnologiyalari va boshqa zamonaviy kasblarga o‘qitilmoqda. Eng avvalo, ularni ishga yo‘naltirish maqsad qilingan. Bu — sa‘y-harakatlarimizning boshlanishi.

Xorijda o‘qib yurganimizda “El-yurt umidi” jamg‘armasini takomillashtirish bo‘yicha juda ko‘p taklif berardik. Har oyda vazirlar, tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuv tashkil etilar, taklif va mulohazalarimizni bildirish imkoni berilar edi.

Prezidentimiz farmonida yoshlarga katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlarga e’tiborni ko‘rish mumkin. Eng muhim jihatlardan biri shuki, o‘qishni yakunlagandan keyin xorijda maqsadli stajirovka o‘tash imkoniyati yaratilmoqda. O‘zining sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish yoki magistraturani tamomlagandan keyin xorijda doktorantura bosqichida ta‘lim olish imkoniyati taqdim etilayotir.

Yana bir muhim o‘zgarish: 2025-yil 1-avgustdan boshlab jamg‘arma stipendiatlari soni oshib borishini inobatga olgan holda O‘zbekistonning Vashington (AQSH) hamda London (Buyuk Britaniya)dagi elchixonalari boshqaruv tuzilmasi mavjud shtat birliklari doirasida jamg‘arma stipendiatlari bilan ishlashga mas’ul birinchi kotib lavozimi joriy etilmoqda. Ular bevosita jamg‘arma stipendiatlari bilan doimiy muloqotda bo‘lib, duch kelayotgan muammolarini hal etishda yordam beradi.

Har ikki-uch yilda hayotimizga yangi texnologiyalar kirib kelyapti. Hayot davomida ta‘lim olish, o‘z ustida ishlash, malaka oshirishning ahamiyati tobora ortib borayotir. Samarali faoliyat yuritish uchun xorijda malaka oshirish juda muhim. Aynan shu imkoniyat yaratib berilgani ko‘plab davlat xizmatchilari uchun dunyoning nufuzli kompaniyalari universitetlarida eng ilg‘or bilimlar olish va malaka oshirishda poydevor bo‘lmoqda.

ULAR BUYUK XALQIMIZNING MUNOSIB FARZANDLARI

**Dilafro‘z AXBO‘TAYEVA,
AQSHning Pensilvaniya davlat universiteti talabasi Dilro‘za Jumanovanning onasi:**

— O‘qituvchiman, 30 yildan buyon yosh avlodga ta‘lim-tarbiya berib kelaman. Ilgari o‘zimiz pedagog bo‘lsak ham, oddiy oilalarning farzandlari xorijda o‘qib kelishini tasavvur qilolmasdik. Mana, qizim Dilro‘za Jumanova AQSHning Pensilvaniya davlat universitetida ta‘lim olmoqda.

Uning nufuzli universitetga o‘qishga kirgani haqidagi xushxabardan behad quvondik, ammo... o‘qish uchun kontrakt summasini to‘lashga imkoniyatimiz yo‘q edi. O‘sha paytda biz uchun yechimi mushkul bo‘lgan masalani “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijobiy hal qildi. Qizimiz mana shu jamg‘arma stipendiatlari bo‘ldi. Uning chet eldagi o‘qish xarajatini shu jamg‘arma to‘liq qoplab berishini eshitib, ko‘zimiz quvunch yoshlariga to‘ldi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasining qayta tashkil etilgani, takomillashtirish men kabi onalar qalbiga quvunch bag‘ishladi. Ayniqsa, ota-onalar kengashi tuzilayotgani farzandi olisda o‘qiyotganlar ko‘ngliga umid beradi. Shu kengash orqali bolalarimizning o‘qishdagi muvaffaqiyati, izlanishi haqida bilib turamiz.

Moddiy yetishmovchilik sabab qanchadan-qancha yoshlar o‘qishni davom ettirmaganiga ko‘p guvoh bo‘lganman. Umrimiz mazmun-mohiyati bo‘lgan o‘g‘il-qizlarimiz imkoniyatini to‘liq namoyon etib, hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun sharoitlar yaratib berilayotganidan xursandman. Yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, innovatsion loyihalarni amalga oshirishga qodir o‘g‘il-qizlarimiz kun kelib, o‘z salohiyatini mamlakatimiz taraqqiyoti uchun safarbar etishiga ishonaman.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA yozib oldi.**

Urbanizatsiya jarayonida shaharlarda aholi bilan birga transport vositalari soni ham ortib boradi. Buning ortidan ko‘chalarda tirbandlik ko‘payadi. Natijada u yoki bu manzilga otlangan odamlar vaqtining muayyan qismini tirbandliklarda yo‘qotadi. Xuddi shu vaziyatda jamoat transportining samarali ishlashi katta ahamiyat kasb etadi.

Anglaganingizdek, navbatdagi mulohazalarimiz jamoat transporti haqida bo‘ladi. Chunki hozir mamlakatimizda jamoat transportiga nafaqat odamlarni o‘z manziliga tez va xavfsiz yetkazib qo‘yuvchi, balki atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda tirbandlikni kamaytiruvchi, yo‘llardagi harakatni tartibga soluvchi tizim sifatida katta e‘tibor qaratilmoqda.

Ochiq va shaffof muhit

Bugun avtobus yoki metro xizmatidan foydalanayotgan kishi transport sohasida qator ijobiy o‘zgarishlar bo‘layotganini tezda ilg‘aydi. Jumladan, zamonaviy avtobuslarning belgilangan jadval asosidagi harakatini, haydovchilarning o‘zgargan muomalasini payqamaslik mumkin emas.

Eng e‘tiborlisi to‘lov tizimining elektron shakliga o‘tkazilganidir. Ya‘ni transport kartalari, QR-kodlar va mobil to‘lov tizimlari joriy etilishi yo‘lovchilarga katta qulaylik yaratib, transport xizmatlari ochiq va shaffof bo‘lishiga zamin yaratadi. Bugun kichikdek ko‘ringan bu islohotlar aslida, ijtimoiy hayotimizda katta burilish yasayotir.

Bundan o‘n yillar avval poytaxt ko‘chalarida harakatlangan odamlar buni yaxshi biladi. Axir o‘sha paytlar soyarka yoki benzinda yuradigan avtobuslar saloniga o‘rnashib qolgan achimsiz hiddan aksariyatimiz “bahramand” bo‘lganmiz. Ob-havo qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, avtobuslarning bekatlarda uzoq turib qolishi, pul yig‘uvchilar esa ulov yo‘nalishini qayta-qayta aytib, odamlarni chorlab, chumchuq sig‘adigan



joyga ham joylashtirishi kabi manzaralar hali ham ko‘z o‘ngimizdan uzoqlab ulgurani yo‘q. Ustiga ustak, e‘tiroz bildirsangiz, transportdan tushib ketishni “tavsiya” qilishardi. Keyingi avtobus ham xuddi shunday yo‘l tutardi. Oqibatda tishni tishga qo‘yib, manzilga kech bo‘lsa-da borilardi. Xullas, tizim boshqacha edi...

Bugun shunday holatlarga guvoh bo‘lganlar beixtiyor “bo‘larkan-ku,” deb yuborishi aniq. Ammo hamma narsa joy-joyga tushdi, deiyishga hali erta. Hozirgi zamonda hech bir tarmoqni o‘z holiga tashlab qo‘yish kerak emas. Chunki kunda-kunora har sohada yangilik

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyasiga ko‘ra, har bir odam yiliga kamida 15,6 kilogrammdan baliq iste‘mol qilishi zarur. Bu me‘yor dengiz qirg‘og‘ida ham, sahroda yashayotganlarga ham birdek tegishli. Chunki insonning sog‘lom yashashida luqmai halolning alohida o‘rni bor. Bu, ayniqsa, hududi dengiz va okeanlarga tutashmagan mamlakatimiz uchun ham dolzarb masala.

Shu bois, keyingi yillarda baliq yetishtirish hajmini oshirish, bu borada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, baliqchilikni iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish borasida tizimli ishlar qilinmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 22-fevraldagi “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi boshqaruviini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi direksiyasi” davlat unitar korxonasini Suv xo‘jaligi vazirligi ta‘sischiligidagi “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi” mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida qayta tashkil etishdan ham shu maqsad ko‘zda tutilgan.

Jizzax viloyatida agrar sohaning ushbu muhim tarmog‘ini rivojlantirish borasida so‘nggi yillarda jiddiy islohotlar kechmoqda. Bu borada Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining asosiy qismi viloyat hududida joylashgani muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

JAMOAT TRANSPORTI

TIRBANDLIKLAR CHORASI, IJTIMOIIY TENGLIK VA ZAMONAVIYLASHAYOTGAN TIZIM HAQIDA MULOHAZALAR

yaratilmoqda. Uni o‘zlashtirish, joriy etish orqali zamonaviy jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot sari odimlash mumkin. Jumladan, jamoat transporti sohasida ham.

Mutaxassislar ta‘kidicha, so‘nggi uch-to‘rt yilda Toshkent shahrida umumiy transport soni qariyb ikki yarim barobar ko‘paygan. Ammo ko‘chalarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini karrasiga oshirishning imkoni yo‘q. Yana deng, bunday murakkab vaziyatda aholi harakati ko‘payib, jamoat transportiga ehtiyoj oshib bormoqda. Har yili bu ko‘rsatkich 1-2 millionga oshib borayotgani esa vaziyat nechog‘liq dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Poytaxtga viloyatlardan kirib keladigan transport oqimini hisobga olsak, bu yuklama yanada ortadi. Mana shulardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, qulay transport tizimi davlatning asosiy ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi hayotiy zaruratga aylanishi shart.

Xo‘sh, bunday vaziyatda nima qilish kerak? Mutaxassislar qanday choralar taklif etmoqda?

— Bugungi kunda bu borada beshta asosiy yo‘nalishda jadal ishlanmoqda, — deydi Transport vazirligi loyiha ofisi rahbari Murodjon Obidov. — Avvalo, avtobuslar harakatlanadigan yo‘nalishlar tarmog‘i maqbullashtirilib, harakat tarkibi soni va sig‘imi kengaytirilgan bo‘lsa, keyin jamoat transportlari harakati hamda xizmat sifatini nazorat qilish maqsadida elektron kuzatuv tizimi joriy etildi. Uchinchi muhim yo‘nalish jamoat transportlari uchun alohida yo‘laklar tashkil etilishi bo‘ldi. Bu kundalik harakatga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. To‘rtinchi yo‘nalishda jamoat transportida bir turdan ikkinchisiga o‘tish uzviyligini ta‘minlaydigan transport o‘tish bog‘lamalari tashkil etildi. Xususan, metropoliten va boshqa jamoat transportlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik ta‘minlandi. Beshinchi yo‘nalishda esa aholi bir jamoat transportidan boshqasiga o‘tganda qo‘shimcha moliyaviy yuqumalar yuzaga kelmastiki uchun yangi tariflar tizimi joriy qilindi. Natijada yo‘lovchilar bir soat mobaynida 2400 so‘m evaziga jamoat transporti xizmatlaridan cheklanmagan tarzda foydalanish imkoniga ega bo‘ldi.

Albatta, bu choralar o‘z-o‘zida samarasini bermaydi. Birgina to‘lov tizimidagi qulaylik orqali yo‘lovchilar oqimi 32 foiz, yo‘l haqi to‘lovidan tushadigan tushum 23 foiz oshgan. 2022-yilda poytaxtda transportdan kunlik foydalanuvchilar 6 millionni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda 8 millionga yetdi. 2028-yilda 10 millionga yetishi mumkin. Jamoat transportidan foydalanish 2022-yilda 18 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda 31 foizga yetgan. Harakat tarkibi yangilanishi, yangi



yo‘nalishlar ochilishi natijasida 2028-yilda bu ko‘rsatkich 36 foizga yetadi.

Toshkent tajribasi nimasi bilan ajralib turadi?

Poytaxtimiz jamoat transportida joriy etilgan yana bir muhim yangilik brutto shartnoma tizimi yo‘lga qo‘yilishi bo‘ldi. Bu tizim 2023-yil Xitoydan katta sig‘imli 1000 dona zamonaviy avtobus olib kelinganidan so‘ng amalioyotga joriy etildi. Ushbu tizimda haydovchilar bosib o‘tgan masofa va ko‘rsatgan xizmatlariga qarab haq oladi. Ularga har bir yo‘nalish “pasport”i bo‘yicha harakatlanish, transportni toza va ozoda tutish, xavfsizlikni ta‘minlash kabi aniq talablar qo‘yiladi. Ana shu mezonlar asosida har bir yo‘nalishdagi xizmat uchun haq to‘lanadi.

Tizim joriy qilinishi ortidan haydovchilar manfaatidan ko‘ra, yo‘lovchilar manfaati birinchi o‘ringa chiqdi. Bugun ishga, o‘qishga yoki kundalik yumush bilan avtobusdan foydalanadigan fuqarolar buni his qilmoqda. Haydovchilarning asosiy vazifasi yo‘lovchilarni manzilga o‘z vaqtida va xavfsiz yetkazib qo‘yish etib belgilangan.

Haydovchilar uchun kunlik “plan” bekor qilinganidan so‘ng qoidabuzarliklar soni to‘rt barobar qisqardi, yo‘l-transport hodisalari 35 foiz kamaydi.

Ijtimoiy tenglik jamiyat taraqqiyotining muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Keling, buni jamoat transporti misolida ko‘rib chiqaylik.

Har bir fuqaro davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan, jumladan, jamoat transportidan foydalanish huquqiga

uzoq turib qolgan bo‘lsa, tegishli choralarni ko‘rmoqda.

“A” tasmali yo‘llardagi qat‘iy tartib jamoat transporti harakatini uzluksiz va tez amalga oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ish vaqtida yo‘lovchilarning manzilga o‘z vaqtida yetib borishi aynan shu tartib intizomiga bog‘liq.

Yagona tizim sari dadil qadamlar

Bugungi kunda nafaqat poytaxt, balki hududlarda ham jamoat transporti rivojlanayotgani yuqorida urg‘u berganimiz ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga munosib hissa qo‘shyapti. “Quruv qoshig‘ og‘iz yirtar”, deyishadi. Shu bois, fikrimizni raqamlar yordamida tahlil qilsak. 2024-yilda hududlarga tadbirkorlar tomonidan 700 ta avtobus va 530 dan ortiq mikroavtobus sotib olingan. 2025-yilning birinchi choragida esa hududlarga yana 241 ta avtobus va 133 ta mikroavtobus olib kelindi. 113 ta yangi, jumladan, 56 ta avtobus yo‘nalishi ochildi. Viloyat transport boshqarmalarida markazlashtirilgan dispetcherlik xizmati joriy etildi. 48 ta yo‘nalish brutto shartnomalar asosida xizmat ko‘rsatishga o‘tdi. Bu sifat va xavfsizlikka ustuvorlik berilgan yangi model bo‘ldi. Harakat tarkibi yangilanishi yo‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

— 2023-yildan Toshkent shahri bilan hamohang tarzda barcha viloyatlarda brutto shartnoma tizimi joriy etila boshlandi. Hozirgi kunda bu tizim barcha viloyatlarda qisman bo‘lsa-da ishlanmoqda, — deydi Transport vazirligi loyiha ofisi rahbari Murodjon Obidov. — Eski tizimda “Toshshahartransxizmat” Alja davlat tomonidan subsidiya ajratilardi va ko‘rilgan zararlarni qoplab berish mexanizmi ishlandi. Hududlarda esa bu mexanizm deyarli ishlamadi. Oqibatda hududlarda avtobus tashuvlari deyarli yo‘q bo‘lib ketgandi. Bitta-ikkita shaharda qolgandi, xolos. Keyingi yillardagi o‘zgarishlar tufayli jamoat transporti, xususan, avtobusda yo‘lovchi tashish xizmati qayta tiklanmoqda. Bu tiklanishlar yo‘lovchi tashuvchi korxonalariga o‘zining xizmatini vaqtida bajarish orqali kafolatlangan mablag‘ olish imkonini bermaydi.

Ilgari hududlarda jamoat transporti tizimi rivojlanmaganiga yana bir sabab — tashuvlar sifatini belgilaydigan mexanizm yo‘q edi. Faqat litsenziya bor edi. Agar litsenziya to‘xtatib qo‘yilsa, aholi umuman tashuvsiz qolib ketardi. Hozirgi kunda bu jarayonni moliyaviy

ega. Avvallari ayrim ijtimoiy holatlar bu imkoniyatdan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilardi. Masalan, imkoniyati cheklangan insonlar uchun avtobuslarga chiqib-tushish katta muammo edi. Avtobuslarda ular uchun maxsus joy ajratilmagandi. Endi esa poytaxtga olib kelingan zamonaviy avtobuslar orqali bu boradagi kamchiliklar bartaraf etilmoqda. Ularda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus joylar va qulayliklar mavjud.

Shuningdek, aksariyat insonlar ishga, o‘qishga yoki boshqa zarurat tufayli shaxsiy avtomobillarda harakatlanadi. Bu esa shahar ko‘chalarida, ayniqsa, sig‘imi kam yo‘llarda tirbandliklarni keltirib chiqaradi. Bunday holatda avtotransport haydovchilari o‘z manfaatlarini o‘ylab, jamoat transportiga yo‘l bermasdi, natijada yo‘lovchilar boradigan manzilga kechikishga majbur bo‘lardi. Bu esa o‘z-o‘zidan ijtimoiy tenglikka putur yetkazardi.

Poytaxtda avtobuslar harakatini yaxshilash maqsadida joriy etilgan “A” tasmali maxsus yo‘laklar bunga yechim bo‘lmoqda. Hozirgacha 25 ta ko‘chada shunday tasmali 74 kilometrligi yo‘l tashkil etilgan. Bu yo‘llar orqali avtobuslar vaqtini tejamoqda, fuqarolar esa manzilga o‘z vaqtida, xavfsiz va qulay tarzda yetib bormoqda.

— “A” tasmali yo‘llarda Toshkent shahri IIBB YHXB tomonidan tegishli yo‘l-patrol xizmati xodimlaridan iborat ishchi guruhlari tashkil etilgan, — deydi Toshkent shahri IIBB YHXB axborot xizmati rahbari Qahramon Xudoyberganov. — Ular tomonidan “A” tasmali yo‘llar doimiy nazoratga olingan. Yo‘l-patrol inspektorlari ayrim vaqtlarda jamoat transporti vositalarida ham yurib, avtobuslar belgilangan tasmada yoki bekatda

uzoq turib qolgan bo‘lsa, tegishli choralarni ko‘rmoqda.

“A” tasmali yo‘llardagi qat‘iy tartib jamoat transporti harakatini uzluksiz va tez amalga oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ish vaqtida yo‘lovchilarning manzilga o‘z vaqtida yetib borishi aynan shu tartib intizomiga bog‘liq.

Yagona tizim sari dadil qadamlar

Bugungi kunda nafaqat poytaxt, balki hududlarda ham jamoat transporti rivojlanayotgani yuqorida urg‘u berganimiz ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga munosib hissa qo‘shyapti. “Quruv qoshig‘ og‘iz yirtar”, deyishadi. Shu bois, fikrimizni raqamlar yordamida tahlil qilsak. 2024-yilda hududlarga tadbirkorlar tomonidan 700 ta avtobus va 530 dan ortiq mikroavtobus sotib olingan. 2025-yilning birinchi choragida esa hududlarga yana 241 ta avtobus va 133 ta mikroavtobus olib kelindi. 113 ta yangi, jumladan, 56 ta avtobus yo‘nalishi ochildi. Viloyat transport boshqarmalarida markazlashtirilgan dispetcherlik xizmati joriy etildi. 48 ta yo‘nalish brutto shartnomalar asosida xizmat ko‘rsatishga o‘tdi. Bu sifat va xavfsizlikka ustuvorlik berilgan yangi model bo‘ldi. Harakat tarkibi yangilanishi yo‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

— 2023-yildan Toshkent shahri bilan hamohang tarzda barcha viloyatlarda brutto shartnoma tizimi joriy etila boshlandi. Hozirgi kunda bu tizim barcha viloyatlarda qisman bo‘lsa-da ishlanmoqda, — deydi Transport vazirligi loyiha ofisi rahbari Murodjon Obidov. — Eski tizimda “Toshshahartransxizmat” Alja davlat tomonidan subsidiya ajratilardi va ko‘rilgan zararlarni qoplab berish mexanizmi ishlandi. Hududlarda esa bu mexanizm deyarli ishlamadi. Oqibatda hududlarda avtobus tashuvlari deyarli yo‘q bo‘lib ketgandi. Bitta-ikkita shaharda qolgandi, xolos. Keyingi yillardagi o‘zgarishlar tufayli jamoat transporti, xususan, avtobusda yo‘lovchi tashish xizmati qayta tiklanmoqda. Bu tiklanishlar yo‘lovchi tashuvchi korxonalariga o‘zining xizmatini vaqtida bajarish orqali kafolatlangan mablag‘ olish imkonini bermaydi.

Ilgari hududlarda jamoat transporti tizimi rivojlanmaganiga yana bir sabab — tashuvlar sifatini belgilaydigan mexanizm yo‘q edi. Faqat litsenziya bor edi. Agar litsenziya to‘xtatib qo‘yilsa, aholi umuman tashuvsiz qolib ketardi. Hozirgi kunda bu jarayonni moliyaviy

ega. Avvallari ayrim ijtimoiy holatlar bu imkoniyatdan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilardi. Masalan, imkoniyati cheklangan insonlar uchun avtobuslarga chiqib-tushish katta muammo edi. Avtobuslarda ular uchun maxsus joy ajratilmagandi. Endi esa poytaxtga olib kelingan zamonaviy avtobuslar orqali bu boradagi kamchiliklar bartaraf etilmoqda. Ularda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus joylar va qulayliklar mavjud.

Shuningdek, aksariyat insonlar ishga, o‘qishga yoki boshqa zarurat tufayli shaxsiy avtomobillarda harakatlanadi. Bu esa shahar ko‘chalarida, ayniqsa, sig‘imi kam yo‘llarda tirbandliklarni keltirib chiqaradi. Bunday holatda avtotransport haydovchilari o‘z manfaatlarini o‘ylab, jamoat transportiga yo‘l bermasdi, natijada yo‘lovchilar boradigan manzilga kechikishga majbur bo‘lardi. Bu esa o‘z-o‘zidan ijtimoiy tenglikka putur yetkazardi.

Poytaxtda avtobuslar harakatini yaxshilash maqsadida joriy etilgan “A” tasmali maxsus yo‘laklar bunga yechim bo‘lmoqda. Hozirgacha 25 ta ko‘chada shunday tasmali 74 kilometrligi yo‘l tashkil etilgan. Bu yo‘llar orqali avtobuslar vaqtini tejamoqda, fuqarolar esa manzilga o‘z vaqtida, xavfsiz va qulay tarzda yetib bormoqda.

— “A” tasmali yo‘llarda Toshkent shahri IIBB YHXB tomonidan tegishli yo‘l-patrol xizmati xodimlaridan iborat ishchi guruhlari tashkil etilgan, — deydi Toshkent shahri IIBB YHXB axborot xizmati rahbari Qahramon Xudoyberganov. — Ular tomonidan “A” tasmali yo‘llar doimiy nazoratga olingan. Yo‘l-patrol inspektorlari ayrim vaqtlarda jamoat transporti vositalarida ham yurib, avtobuslar belgilangan tasmada yoki bekatda

tomonga burish orqali ta‘sir qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ya‘ni hududlarda ham Toshkent tajribasi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Keyingi bosqichlarda qishloqlardan tuman markazlarigacha, tuman markazlaridan viloyat markazlarigacha bo‘lgan barcha hududlar yagona boshqariladigan tizim asosida qamrab olinadi.

Samarqand, Xiva, Buxoro, Urganch kabi qadimiy shaharlarimiz bugungi kunda ham tarixiy va madaniy merosi bilan xorijliklarni maftun etmoqda. Turizmning yuqori sifatda rivojlanishi uchun esa, birinchi navbatda, transport tizimi zamonaviylashtirilishi kerak. Shu bois, mazkur shaharlarda, umuman, respublikamizning boshqa shaharlarida ham jamoat transporti xizmatlari qulaylashib bormoqda.

Jamoat transportining samarali faoliyati shahar iqtisodiyoti uchun juda foydali. U shaxsiy avtomobillardan foydalanish ehtiyojini kamaytiradi. Elektron to‘lov tizimlari esa moliyaviy shaffoflikni ta‘minlab, samaradorlikni oshiradi.

Bundan tashqari, yangi ish o‘rinlari yaratish, logistikani rivojlantirish va shaharlar jozibadorligini oshirishda ham tarmoqning ahamiyati katta. U ko‘p hollarda mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda ijobiy rol o‘ynaydi.

“Yangi avtobuslar, elektron to‘lov tizimi, “A” toifali yo‘laklar, brutto shartnomalar asosida xizmat ko‘rsatish sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shunga qaramay, yo‘llarda hali-hamon tirbandliklar, yo‘l-transport hodisalari kuzatilmoqda.

Bu muammoni faqatgina transport vositalarini ko‘paytirish yoki yo‘llarni kengaytirish orqali bartaraf etib bo‘lmaydi. Masalaning ikkinchi, ko‘p holda e‘tibordan chetda qolib ketayotgan jihati bor — bu vaqtni samarali tashkiliy vazifasidir. Aytaylik, Toshkent shahridagi aksariyat mehnat jamoalari va talabalarning kunlik rejimi bir vaqtda — soat 9:00da boshlanadi. Bu esa aholining bir vaqtning o‘zida transportga chiqishiga asosiy sababdir. Natijada yuzlab avtobus, minglab avtomashina va odamlar bir vaqtda yo‘lga chiqadi. Bu esa faqat texnik emas, tashkiliy muammodir.

Keyingi paytlarda bu muammoni yumshatish maqsadida Toshkentda talabalar uchun darslar boshlanish vaqtini kechiktirgan holda tashkil etishga harakat qilinmoqda. Lekin bu ham mutlaq yechim emasligi ayon bo‘lmoqda.

Dunyo tajribasida vaqt rejimiga samaradorlikning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Masalan, Yevropaning ba‘zi mamlakatlarida yozgi va qishki vaqt tizimlari amalda. Bu tartibda yoz faslida quyosh erta chiqishi sababli ish soatlari ham ertaroq belgilanadi. Shunday sharoitda ba‘zi sohalarida ish vaqti bir necha soat oldin boshlanadi. Natijada transport oqimi zichligi qisman bo‘lsa-da, bartaraf etiladi. Bu nafaqat tirbandlikni kamaytiradi, balki ish unumdorligi va vaqtdan samarali foydalanishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham shunday tizimni joriy etish haqida o‘ylab ko‘rish vaqti keladi. Ayrim davlat idoralari, ta‘lim muassasalari va yirik xususiy sektor vakillariga vaqtni muvozanatlashtirilgan holda ish tashkil qilish tavsiya etilishi mumkin. Masalan, kimdir ishini 8:00 da boshlasa, boshqalar 9:00 da, yana bir qism 10:00 da ishga tushsa, transportga bosim tabiiy tarzda kamayadi. Bu usul orqali transportdagi faol harakat faqat ertalabki ikki soat ichiga emas, balki 3-4 soat davomida bir maromda bo‘lishiga erishish mumkin. Bunday yondashuv nafaqat tirbandlikni kamaytiradi, balki shahar infratuzilmasidan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Sardor TOLLIBOYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tuohai Aquatic Science and Technology Co., Ltd.” kompaniyasi bilan hamkorlikda ko‘llar tizimining Tuzkon ko‘li qismida amalga oshirilishi kutilmoqda. Ushbu loyiha bo‘yicha 70 gektar yer maydonda krevetka yetishtirish hamda baliq mahsulotlarini qayta ishlash korxonasi barpo etish mo‘ljallangan.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi nafaqat baliqchilik, balki hududiy turizm rivojida ham katta ahamiyatga ega. So‘nggi ikki yilda havaskor va sport baliq ovini keng targ‘ib etish hisobiga sayyohlar soni 22 mingdan oshdi. Sayr yo‘laklari, dam olish maskanlari, suvda o‘ynaladigan sport turlari uchun infratuzilmalar yaratildi.

— Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida baliqchilik va turizmi rivojlantirish, hudud tabiati himoyasini yaxshilash bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta‘minlashdagi ishlarning asosiy qismi bizning jamiyatimiz zimmasiga yuqiltgan, — deydi “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi” MCHJ direktori Olim Umarov. — Ayni paytda ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy ishlarga kirishganmiz. Intensiv baliq yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini, jumladan, qafas usulini keng joriy etish hamda baliq ovlash hajmlarini oshirishda dastlabki natijalarga erishdik. Qilinadigan ishlar esa ko‘p.

Hududda zamonaviy turizm infratuzilmasi obyektlari qurish ishlari izchil davom etmoqda. Bundan tashqari, ko‘llar hududida obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va ko‘llar tubini chiqindilardan tozalash ishlari doimiy amalga oshirib borish kerak.

Farhod NE‘MATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yetti xazinaning biri

QIRG‘OQDA HAM SAHRODA HAM YASHAYOTGANLARGA BIRDEK TEGISHLI

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi yurtimizning eng noyob tabiiy suv havzalaridan biri. Ko‘llar tizimining umumiy maydoni 370 ming gektar, uzunligi 190 kilometr, o‘rtacha kengligi 21 kilometr, eng chuqur qismi 30 metрни, o‘rtacha chuqurligi 7 metрни tashkil etadi. “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ushbu suv havzasida baliq yetishtirish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishga mas‘ul tashkilot hisoblanadi. Baliq ovlaydigan ko‘plab korxona va tashkilotlardan farqli o‘laroq, suv havzasida kelgusida baliqlarni ko‘paytirish

uchun baliq chavoqlari yetishtirish, tarmoqda zamonaviy texnologiya va usullarini keng joriy etish kabi vazifalar ijrosi ham shu MCHJga yuklangan.

“Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi” MCHJ va uning ishonchli boshqaruvchisi tomonidan tabiat boyliklarini saqlash to‘g‘risidagi qonunlar asosida ko‘llar tizimining fauna va florasini ilmiy asosda o‘rganish va tashkilot hisoblanadi. Baliq ovlaydigan ko‘plab korxona va tashkilotlardan farqli o‘laroq, suv havzasida kelgusida baliqlarni ko‘paytirish

va mutasaddi tashkilotlar nazorati ostida suv havzasini bioxilma-xilligini ko‘paytirish maqsadida to‘rtqafaslarda (sadoqlar)da bir necha yangi tur baliq yetishtirish bo‘yicha tajribalar o‘tkazilmoqda. Shu usulda 2024-yilda og do‘ngpeshona, zog‘orabaliq hamda og amur baliq turlari chavoqdan ko‘payishiga erishildi.

Shu yo‘nalishdagi eng muhim qadamlardan biri Arnasoy tumanining Baxti mahallasida 40 gektar maydonda tashkil etilgan yangi zamonaviy inkubatsiya sexi ishga tushirilishi bo‘ldi. Ushbu loyiha “Real hunter” MCHJ,

“Professional assets management” MCHJ hamda “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi” MCHJ hamkorligida amalga oshirildi.

Loyiha ko‘llar tizimida baliq zaxiralarni ekologiya va atrof-muhit muhofazasi qonunchiligi bilan belgilangan me‘yorlarda ko‘paytirish imkonini beradi. Bu yo‘nalishda dastlab yiliga 15 million dona, to‘liq quvvat bilan ishlagach, 50 million donagacha baliq chavog‘i yetishtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Yana bir yangi loyiha Toshkent davlat agrar universiteti va Xitoyning “Zhanjiang

